

Za’faron o’simligining foydali xususiyatlari va uning tarqalishida o‘ziga xos belgilar

Maxmudjonova Mavluda Muhammadali qizi

Andijon Davlat Pedagogika Instituti Aniq va Tabiiy Fanlar Fakulteti
Biologiya yo‘nalishi I bosqich 103-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada za’faron o’simligining tabobatda, tibbiyotda qo‘llanilishi uning tuzilishidagi va tarqalishidagi o‘ziga xos belgilari, xalq orasidagi ahamiyati haqida yoritilgan.

Аннотация: В данной статье объясняется использование растения шафран в медицине, его характерные особенности в строении и распространении, а также его значение в народе.

Abstract: In this article, the use of the saffron plant in medicine, its characteristic features in its structure and distribution, and its importance among the people are explained.

Kalit so‘zlar: za’faron, gultoj, meva, tugunak piyoz,

Ключевые слова: шафран, гультож, плоды, лук.

Key words: saffron, gultozh, fruit, onion.

Za’faron – sapsarguldoshlarga mansub ko‘p yillik o’tsimon tugunak piyozli o’simlik bo‘lib, yovvoyi holda uchramaydi. Piyozining diametri **1-2** santimetr. Bargi **5-15** ta, och sariq rangda; eni 2mm, tuksiz. Guli **1-4** ta gultoji oqish, pastki qismi (tashqi tomondan) binafsha rang, uzunligi **2-4** sm. Changchilari gulqo‘rg’ondan qisqa bo‘lib, ko‘sagi cho‘ziq, eni **6-7**mm. Fevral-iyulda gullaydi, aprel-avgustda mevalari pishib yetiladi. Tarkibida efir moyi bo‘lgani uchun hidi juda o‘tkir va yoqimli. **90-100** ming dona za’faron gulidan 1kg qurigan gul tumshuqchalari olinadi. Za’faron gulining quritilgan tumshuqchlari murabbo, parfumeriya sanoatida ishlataladi. Hindiston, Pokiston, Xitoy, Janubiy Yevropa, Ozarbayjonda katta maydonlarda ekiladi.

Zamonaviy tibbiyotda u ko‘zga tomiziladigan dori tayyorlashda va umumiyligida quvvatlantiruvchi turli dori-darmonlar tayyorlashda ishlataladi. Za’faronning antikanserogen xususiyatlarga va antimutagen xususiyatlarga egaligi isbotlangan. Uni qaynoq sut bilan ichilsa, bosh miya faoliyatini mustahkamlab xotirani kuchaytiradi. Agar asal bilan iste’mol qilinsa, buyrakdagagi toshlarni

maydalanishiga yordam beradi. Za'faronning xushbo'y hidini hidlash insonni nafas olish organlariga ijobiy ta'sir qilib tinchlantiradi va uyqusizlikdan qutilishga yordam beradi. Kuchli bosh og'rig'ida va qulqoq shamollaganda za'faron suvida paxta yoki yumshoq matoni ho'llab kasal a'zoga bosilsa, og'riqni qoldiradi. Bundan tashqari u qorin ochish hissini ham kamaytiradi. Za'faron me'yordan oshirib ishlatilsa, sezgi organlarini qattiq zo'riqishga olib kelishi mumkin. Me'yordan ko'p ovqatga qo'shilgan za'faron taomni buzishdan tashqari insonni zaharlanishga olib kelishi mumkin. Bir necha gram yangi uzilgan sifatli za'faron iste'mol qilinsa, o'limga ham sabab bo'lishi mumkin.

Za'faron o'simligini sanoatda ipak, to'qilgan tolalar, gilamlarni bo'yashda sariq rangli siyoh tayyorlashda, qimatbaho qog'oz ishlab chiqarishda va boshqa turli xil usullarda ham ishlatish mumkin. U pazandachilikda mislsiz vositadir. Uning kichkina tolasini qo'shib pishirilsa, taom yoqimli oltin rangida tovlanib o'ziga xos xushbo'y ta'mga ega bo'ladi va oson hazm bo'ladi.

Za'faron ovqat hazm qilishni yaxshilab, ishtahani ochadi, organizmning hayotiy faooligini oshiradi. Insonlar undan oshqozon, yurak, jigar nafas olish a'zolari va asab tizimini mustahkamlashda, buyraklarni tozalashda, og'riqni qoldirishda, tinchlaniruvchi va ter haydovchi vosita sifatida foydalanishadi. Bundan tashqari o'simlik boshqa bir turdag'i kasalliklarni ham davolashda keng qo'llaniladi.

- Onkologik kasalliklarni davolashda (hatto kasallikning oxirgi bosqichida saraton o'simtalariga qarshilik ko'rsatadi va ularning hujayralari o'sishini to'xtatadi).
- Qonni tozalashda (uni yangilaydi, tozalaydi va yurak qon tomir tizimini mustahkamlaydi, organizmning barcha hujayralarini oziqlantiradi).
- Miya faoliyatini aktivligini yaxshilaydi (bosh miya to'qimalarini o'stiradi va xotirani yaxshilaydi).
- Nevrozdan forig' qiladi.
- Oshqozon - ichak faoliyatini me'yorga keltiradi.
- Ko'rish qobiliyatini tiklaydi, ko'z to'rpardasidagi kasalliklarni davolaydi.
- Terining kuygan va shish paydo bo'lish holatlarida ularni davolaydi.
- Butun organizmni yoshartiradi.

- Organizmdagi radiatsiya darajasini pasaytiradi.

Gulsafsardoshlar oilasiga mansub – bu o’simlik shamoldan pana, janub tomonga biroz qiya bo‘lgan, quruq tuproqlarda o’sadi. Uni ekish muddati o’simlik tinim davriga o’tgan vaqtida, ya’ni iyul – avgust oylariga to‘g’ri keladi. Za’faron tugunak piyozlari 10 santimetr uzoqlikda, 15 santimetr chuqurlikda, 60 santimetr kenglikda ekiladi. Bu o’simlik oddiy va alohida g’amxo‘rlik talab qilmaydi. Za’faron o’simligi otiqcha namlikka toqat qilmaydi, lekin u qurg’oqchilikdan osongina omon qoladi. Sovuqqa chidamli: 18 daraja sovuqqa bardosh bera oladi.

Foydalanigan adabiyotlar

1. Sulaymonov I.J, Ergashev D.T. “Dorivor o’simliklar yetishtirish texnologiyasi” Namangan -2020
2. “Dorivor o’simliklar va ulardan foydalanish” Ravshan Hamdamovich Ayupov .
3. Moxigul Jo‘raeva “Dorivor o’simliklar atlasi” Noshir 2019
4. WWW. Ziyo .uz kutubxonasi